

ОЦЕНКА ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИГРОВОЙ ОБУЧАЮЩЕЙ ПЛАТФОРМЫ – КАНООТ

PhD., А.А.Хасанов

Наманганский инженерно-строительный институт

Аннотация: В данной статье представлена информация об оценке знаний учащихся во время урока с использованием Kahoot – игровой обучающей платформы.

КАНООТ - О'YINLI O'QUV PLATFORMASIDAN FOYDALANIB TALABALAR BILIMLARINI BAHOLASH

PhD., А.А.Хасанов

Namangan muhandislik-qurilish instituti


Annotatsiya: Ushbu maqolada dars davomida talabalar bilimini Kahoot - o'yinli o'quv platformasidan foydalanib baholash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi kunda har bir sohaga innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilinishi, shu sohadagi jadal rivojlanishni o'zida namoyon qilmoqda. Shu bilan birga ta'lim sohasiga ham innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'z samarasini bermoqda. O'quv jarayonini axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida tashkil qilish talabalar bilimini keskin oshishiga olib kelmoqda.

Professor-o'qituvchi tomonidan dars mashg'ulotlari vaqtini qat'iy ketma-ketlikda taqsimlab olishi kerak. Dars vaqtini taqsimlash davomida talabalar bilimini baholash uchun ham vaqt ajratish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Misol uchun o'qituvchi dars boshlanishidan oldin o'tiladigan mavzu bo'yicha talabalarni qanchalik mavzu bo'yicha tushunchalarini bilib olishi hamda darsni tugatganidan so'ng esa talabalar shu mavzu bo'yicha qanchalik o'zlashtirganini bilib olishi juda muhimdir. Bu esa o'qituvchi tomonidan qanday mahorat bilan


dars mashg'uloti olib borgani hamda mavzuni talabalar qanchalik darajada ozlashtirganini bildiradi.

Dars davomida talabalar bilimini online baholab boruvchi bir qancha dasturiy vositalar hamda maxsus online platformalar mavjud bo'lib, bunday platformalardan biri Internet tarmog'ida joylashtirilgan Kahoot - o'yinli o'quv platformasidir (1-rasm).




1-rasm. Kahoot - o'yinli o'quv platformasining ko'rinishi

Ushbu platforma orqali o'qituvchi birinchi navbatda ro'yhatdan o'tib, har bir mavzu uchun alohida testlar bankini yaratish mumkin. Misol uchun, "Algoritmlashtirish. Algoritm xossasi va turlari" mavzusi bo'yicha test savollarini ko'rib o'taylik. Kahoot - o'yinli o'quv platformasiga "<https://create.kahoot.it>" sayti orqali kiriladi. Shundan keyin esa platformadagi "Create" tugmasini bosib, o'tiladigan dars mavzu uchun alohida bo'lim tashkil qilib olinadi (2-rasm).



2-rasm. Mavzuga doir bo'lim tashkil qilish oynasi


Mavzu bo'yicha tashkil etilgan bo'limga testlar va ularni javobini yozib qo'yishimiz mumkin (3-rasm).



3-rasm. Mavzuga doir testlarni yozish oynasi.


Platformani afzalliklaridan biri test savollarini yozish oynasida har bir test savollarini qiyinlik darajasiga qarab alohida-alohida vaqt berish mumkin. Yana bir imkoniyatlardan biri esa har bir test savoliga mos rasmlarni joylashtirish mumkin.

Dars mashg'ulotlari ohirida shu dars bo'yicha test mashg'ulotlarini <https://kahoot.it/> sayti orqali amalga oshiriladi (4-rasm).



4-rasm. Talabalarni testga kirish oynasi.

Testga kirish uchun o'qituvchi tomonidan maxsus kod beriladi va talabalar shu kod orqali bevosita testga qatnashishi mumkin. Maxsus kod orqali kirgandan so'ng talaba o'z ismini kiritishi lozim (5-rasm).



5-rasm. "Nickname"ni kiritish oynasi

O'qituvchi auditoriyadagi talabalarni platformaga to'liq kirib bo'lganini tekshirgandan so'ng keyin "START" tugmasini bosib testni ishlashga ruhsat beradi. Talabalar test ishlab bo'lgandan keyin qancha bal olganliklari va guruh bo'yicha nechanchi o'rinda turganliklarini ko'rib turadi.

Har bir mavzu bo'yicha talabalarni testdan olgan ballari platformada saqlanib turadi. Semestr ohirida esa talabalar fanni necha foizga o'zlashtirganini ham bilib olish mumkin.

Albatta talabalar test jarayonida qatnashishi uchun internet, noutbuk yoki internetni qo'llab quvvatlaydigan telefonlari kerak bo'ladi. Dars jarayonlarida bunday platformalardan foydalanilsa talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi. Testdan yuqori bal olay degan umidda mavzuni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratadi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Хасанов А.А., Икромов Ж.. Энергетика соҳасида мутахассислар тайёрлашда соҳага оид дастурий воситаларнинг ўрни // “Энергетика соҳасини ривожлантиришда муқобил энергия манбаларининг роли” мавзусида халқаро илмий- амалий конференция Наманган 2021 й. 366-368 б.
2. <https://kahoot.com/>
3. <https://www.ispring.ru/>